GLOBAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Axmedova Sanobar Ikrom qizi,
Fan va texnologiyalar universeti, Iqtisodiyot kafedrasi v.b. dots, PhD
Mullaaxmadova Rauza Kamoliddin qizi
Fan va texnologiyalar universeti 3-kurs talabasi
sanobarahmedova839@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari o‘rganiladi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, rasmiy hujjatlar va ikkilamchi statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Natijalar kredit kafolatlari, imtiyozli moliyalashtirish, maslahat va bozorga chiqish xizmatlarini integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi. Ayollar tadbirkorligi bandlik, daromadlar va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilishi asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *ayollar tadbirkorligi, moliyalashtirish, mikrokredit, kredit kafilligi, oilaviy tadbirkorlik, raqamli savdo, bandlik, O‘zbekiston.*

Аннотация. *В статье исследуются финансово-экономические механизмы развития женского предпринимательства в Узбекистане. Использованы системный подход, сравнительный анализ, изучение официальных документов и вторичных статистических данных. Результаты показывают необходимость интеграции кредитных гарантий, льготного финансирования, консультационных услуг и инструментов выхода на рынок. Обосновано, что женское предпринимательство способствует росту занятости, доходов и местной экономической активности.*

Ключевые слова: *женское предпринимательство, финансирование, микрокредит, кредитная гарантия, семейное предпринимательство, цифровая торговля, занятость, Узбекистан.*

Abstract. *The article examines financial and economic mechanisms for developing women’s entrepreneurship in Uzbekistan. The study applies a systematic approach, comparative analysis, and a review of official documents and secondary statistical data. The findings demonstrate the need to integrate credit guarantees, concessional finance, advisory services, and market-access instruments. Women’s entrepreneurship is shown to contribute to employment, household income, and local economic activity.*

Keywords: *women's entrepreneurship, finance, microcredit, credit guarantee, family business, digital trade, employment, Uzbekistan.*

Ayollar tadbirkorligi iqtisodiy o‘sishning inklyuzivligini ta’minlaydigan, oilalar daromadini ko‘paytiradigan va hududiy bandlikni kengaytiradigan muhim omildir. O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati sezilarli faollashdi: 2018-yil 7-martdagi Prezident qarori xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha institutsional choralarni belgiladi [4]. Biroq ayollarning biznes boshlashi va uni barqaror kengaytirishida boshlang‘ich kapital, garov ta’minoti, moliyaviy savodxonlik hamda sotuv bozorlariga kirish bilan bog‘liq cheklovlar saqlanmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda norasmiy bandlikning yuqoriligi mazkur muammoning dolzarbligini kuchaytiradi. Mazkur sharoitda faqat kredit ajratish ayollar biznesining uzoq muddatli yashovchanligini kafolatlamaydi. Moliyalashtirishni biznes-reja tayyorlash, kasbiy ko‘nikma, buxgalteriya hisobi, raqamli savdo va mentorlik bilan bog‘lash zarur. 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmon bilan mahallabay ishlash tizimida oilaviy tadbirkorlik dasturlarini moliyalashtirish mexanizmlari takomillashtirildi [6]. Tadqiqotning maqsadi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning amaldagi moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini tizimlashtirish, ularning cheklovlarini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot kredit, kafillik, subsidiyalar, infratuzilma va bozor xizmatlarining o‘zaro bog‘liqligiga qaratilgan.

Jahon banki tadqiqotlarida kredit bozoridagi axborot nomutanosibligi va garovning yetishmasligi kichik korxonalar, jumladan ayollar boshqaruvidagi subyektlar uchun moliyaviy cheklovlarni kuchaytirishi qayd etiladi [1]. J. Stiglitz va A. Vayss kredit rationallashuvi sharoitida foiz stavkasini oshirish ham qarz oluvchini tanlash muammosini to‘liq bartaraf etmasligini nazariy jihatdan asoslagan [2, 393-b.]. Bu yondashuv ayollar tadbirkorligi uchun muhim: kredit tarixi qisqa yoki rasmiy aktivlari kam bo‘lgan mijozni faqat an’anaviy garov mezoni asosida baholash istiqbolli loyihalarni cheklashi mumkin. Shu sababli xalqaro amaliyotda kafillik, guruhli kreditlash va pul oqimiga asoslangan skoring vositalari keng qo‘llanadi. Xalqaro moliya korporatsiyasi ayollar egaligidagi bizneslar uchun moliyalashtirish bo‘shlig‘i ham kredit taklifi, ham tadbirkorlarning moliyaviy mahsulotlardan foydalanish qobiliyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [3]. Demak, moliyaviy inklyuziya bank hisobvarag‘i yoki kreditning o‘zi bilan cheklanmaydi; u mahsulot shartlarining mosligi, hujjatlashtirish xarajatlari, maslahat sifati va to‘lov intizomiga oid ma’lumotlardan foydalanishni ham qamrab oladi.

O‘zbek tadqiqotchilari tadbirkorlikni iqtisodiy faollik, tavakkalchilik va yangilik yaratish bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladilar. A. Abdug‘aniyev va hammualliflar kichik biznesni rivojlantirishda moliyaviy resurslar, soliq muhiti va infratuzilmaning uyg‘unligini muhim deb hisoblaydi [8]. Mamlakatda xotin-qizlarni

qo‘llab-quvvatlash masalasining huquqiy asosi 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son Qonun bilan kuchaytirildi [5]. Shunga qaramay, adabiyotlarda hudud kesimida kreditdan keyingi maslahat, kafillik va sotuv kanallarining yagona natijadorlik zanjiri sifatida baholanishi yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu maqola aynan mazkur bog‘liqlikni moliyaviy-iqtisodiy mexanizm nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

Nazariy-metodologik asoslar. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi: ayollar tadbirkorligi moliya, mehnat bozori, institutlar, ta’lim va savdo infratuzilmasi o‘zaro ta’sir qiladigan tizim sifatida ko‘rildi. Qiyosiy tahlil yordamida xalqaro tavsiyalar hamda O‘zbekistondagi normativ-huquqiy mexanizmlar solishtirildi. Tahlil uchun 2018–2024-yillarda qabul qilingan Prezident hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Markaziy bankining ochiq materiallari, Jahon banki hamda IFC nashrlaridan foydalanildi [1; 3; 9; 10].

O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning institutsional asoslari bir necha yo‘nalishda shakllangan. O‘RQ-562-son Qonun xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini belgilaydi [5]. PF-81-son Farmon mahallabay ishlash, oilaviy tadbirkorlik dasturlari va bandlikni rag‘batlantirishning amaliy vositalarini kuchaytirdi [6]. Bunda tijorat banklari kredit resurslarini yetkazib beruvchi, mahalla institutlari ehtiyojni aniqlovchi, bandlik va xotin-qizlar tizimlari esa maslahat hamda yo‘naltirish beruvchi bo‘g‘in sifatida qatnashadi. Fikrimizcha, bu modelning kuchli tomoni hududiy yaqinlik bo‘lsa, zaif tomoni xizmatlar sifati va natijalar monitoringining bir xil emasligidir.

1-jadval

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash instrumentlari va natijadorlik mezonlari

Instrument	Iqtisodiy vazifa	Asosiy natija indikatori	Amalga oshiruvchi bo‘g‘in
Imtiyozli kredit	Boshlang‘ich va aylanma mablag‘ni qoplash	12 oydagi faol korxona ulushi	Tijorat banki
Kredit kafilligi	Garov yetishmovchiligini kamaytirish	Kafolatli kreditlarning qaytish darajasi	Kafillik va bank tizimi
Subsidiyalangan o‘qitish	Boshqaruv va moliyaviy savodxonlikni oshirish	Biznes-reja va rasmiylashgan faoliyat soni	O‘quv markazi, mahalla
Raqamli savdo ko‘magi	Bozorga chiqish xarajatini pasaytirish	Onlayn buyurtma va tushum dinamikasi	Platforma, savdo xizmatlari

Quyidagi jadval amaldagi va istiqbolli moliyaviy-iqtisodiy instrumentlarning funksional bog‘liqligini umumlashtiradi. Unda instrumentlarning maqsadi va

baholash uchun zarur indikatorlar ko‘rsatilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, faqat ajratilgan kredit summasini natija sifatida qabul qilish metodik jihatdan yetarli emas. Korxonaning 12 oydan keyingi faoliyati, yangi ish o‘rinlari, tushumning barqarorligi va kechiktirilgan qarz ulushi birgalikda baholanishi lozim. Bu yondashuv davlat mablag‘lari va bank resurslarining qaytimi haqida aniqroq xulosa beradi.

Amaliyotda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun faqat kredit emas, balki moliyaviy savodxonlik, biznes-reja tayyorlash va bozor bilan bog‘lash mexanizmlari ham bir paketda ishlashi kerak. Masalan, O‘zbekistonda tadbirkor ayollar uchun xizmatlar, savdo va umumiy ovqatlanish yo‘nalishlari ko‘p uchraydi; bu sohalarda kichik boshlang‘ich kapital tezroq aylanadi, lekin rejalashtirish sust bo‘lsa, daromad barqarorlashmaydi. Shu bois bank mahsulotlari mentorlik va maslahat xizmati bilan bog‘langanda, loyiha yashovchanligi oshadi. Bizningcha, eng to‘g‘ri yondashuv — kreditni yakka vosita emas, balki ta’minot, maslahat, monitoring va qayta moliyalash imkoniyatlari bilan birlashtirilgan mexanizm sifatida ko‘rishdir.

Xulosa va takliflar. IFC ma’lumotlarida biznesni rivojlantirish xizmatlari moliyalashtirish mahsulotlarining foydalanilishini yaxshilashi qayd etiladi [3]. O‘zbekistonda bu xizmatlar biznes-reja, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, soliq hisoboti, sertifikatlash, marketing va elektron savdo bo‘yicha maslahatlarni qamrab olishi kerak. 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qaror tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish choralarini belgilagan [7]. Fikrimizcha, o‘qitish kredit berishdan oldingi umumiy seminar bilan cheklanmasdan, kredit olinganidan keyingi 6–12 oyda individual kuzatuv shaklida davom etishi maqsadga muvofiq. Kredit hisobidan ishlab chiqarilgan mahsulot sotilmasa, qarz yuki biznesning rivojlanishiga emas, uning yopilishiga olib keladi. Shu sababli ayollar boshqaruvidagi mikrofirmalarni mahalliy korxonalar, savdo tarmoqlari, turizm obyektlari va elektron platformalar bilan bog‘lash zarur. Davlat xaridlari, ko‘rgazma-yarmarkalar va kooperatsiya shartnomalari mahsulotning barqaror xaridorini shakllantirishga yordam beradi. Raqamli savdo ayniqsa uy sharoitida faoliyat yurituvchi tikuvchilik, qandolatchilik, dizayn va xizmat ko‘rsatish subyektlari uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Bunda internet, logistika va iste’molchi huquqlariga oid ma’lumotlar ham muhimdir. Tahlil natijasida hududiy differensiallashuv zarurligi aniqlandi. Yirik shaharlarda xizmatlar, IT va onlayn savdo loyihalari uchun kichik, tezkor kreditlar hamda raqamli marketing ko‘magi ko‘proq samara berishi mumkin. Qishloq hududlarida esa saqlash, qayta ishlash, kooperatsiya va logistika bilan bog‘langan moliyalashtirish ustuvor bo‘ladi. 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmon bilan kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi belgilandi [11]. Mazkur hujjatdagi loyiha tanlash va tadbirkorlikka o‘qitish yo‘nalishlari ayollar biznesi uchun ham manzilli tatbiq etilishi lozim. Bir xil kredit mahsuloti barcha hudud va tarmoqlarga teng mos kelmaydi.

Umuman, samarali mexanizm uch darajada ishlashi kerak: tadbirkorning loyihasi moliyaviy jihatdan asoslangan bo‘lishi, xizmat ko‘rsatuvchi institutlar o‘zaro ma’lumot almashishi, baholash esa yakuniy iqtisodiy natijaga tayanishi lozim. Jahon bankining ayollar, biznes va huquq bo‘yicha hisobotlari huquqiy tenglik iqtisodiy imkoniyatlarga ta’sir etishini ko‘rsatadi [9]. Biroq huquqiy norma amaliy imkoniyatga aylanishi uchun bank mahsuloti, maslahat, transport-logistika va bolalarni parvarishlash kabi vaqt cheklovlarini hisobga oluvchi xizmatlar ham zarur.

Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda kreditning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatdi. Uning iqtisodiy samarasi kafillik yoki muqobil baholash, biznes ko‘nikmalari, bozorga chiqish va kreditdan keyingi kuzatuv bilan birlashtirilganda oshadi. Amaldagi qonunlar hamda 2018–2023-yillardagi Prezident hujjatlari xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va kichik biznesni rivojlantirish uchun muhim huquqiy-institutsional asos yaratgan [4; 5; 7; 11].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. Women, Business and the Law 2024. — Washington, DC: World Bank, 2024. — 206 p.

2. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. — 1981. — Vol. 71, No. 3. — P. 393–410.

3. International Finance Corporation. Banking on Women: Business Case Update. — Washington, DC: IFC, 2018. — 44 p.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-martdagi PQ-3584-son qarori «Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida». — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2018.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son Qonuni «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida». — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son qarori «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida».

8. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A., Abdug‘aniyev A.A. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008. — 224 b.

9. World Bank. Women, Business and the Law 2023. — Washington, DC: World Bank, 2023. — 182 p.

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023. — 64 b.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2023.